# RIVOJLANISHIDA MURAKKAB KO'P NUQSONLI BOLALARNING IJTIMOIY-MAISHIY MOSLASHUVI HAQIDA BATAFSIL MA'LUMOT.

**Qo'chqorova Gulnoza**
*Axborot texnologiyalari va menejment unverseteti*
*Maxsus pedagogika Defektalogiya yo'nalishi fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Ijtimoiy reabilitatsiya orqali bola shaxsining o'ziga xos psixologik xususiyatlari rivojlantiriladi.*

**Kalit so'zlar:** *korreksion pedagoglar adaptatsiya reabilitatsiya ijtimioylashuv integratsion texnologiyalar psixologik pedagogika va boshqalar*

Mamlakatimiz mustaqilikka erishgan dastlabki kunlardanoq milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalanga,jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishga qodir, jismoniy va ma'naviy yetuk avlodni kamolotga yetkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mustaqillik yillarida millatlar va elatlar ,aholing ijtimoiy qatlamlarini huquqiy muhofaza qilish uchun mustahkam zamin yaratiladi. Mamlakatimizda bolalarga Har tomonlama g'amxo'rlik qilish onalik va bolalikni muhofaza etish masalari davlat siysati darajasida ko'rilmoqda. Ijtimoiy moslashuv (adaptatsiya)individni ijtimoiy muhit sharoitlariga doimiy, faol moslashuv ,hamda bu jarayon natijasi garchi ijtimoiy adaptatsiya muntazam kechsada, bu jarayon odatda vaqti-vaqti bilan individ va uni atrofdagilar hayotida va faoliyatida eng ahamiyatli o'zgarishlar bilan bog'lanadi ijtimoiy adaptatsiyadagi markaziy aspekt -individning ijtimoiy rolini qabul qilishi hisoblanadi. Maxsus o'quv muassasalarida yoki internet turdagi muassasalarida tibbiy -ijtimoiy reabilitaatsiya ishlari alohida yordamga muhtoj bolalar uchun o'quv jarayonnini tashkil qilishda ,ularning ijtimoiy-maishiy moslashuvini amalga oshirish jarayonida, o'ziga xos tomonlarni aniqlashda amalga oshiriladi. Ijtimoiy reabilitatsiya orqali bola shaxsining o'ziga xos psixologik xususiyatlari rivojlantiriladi. Jarayon davomida rivojlanishida murakkab ko'p nuqsonli bola bilan vujudga keladigan g'oya katta miqdordagi ichki va tashqi omillar bilan bog'liq bir qator muammolar bola rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi . Ushbu jarayon samarali boshlash uchun ularning o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish ,ijobiy va salbiy tomonlarni , ta'sir etish natijalarini oldindan ko'rish va korreksiyalashni o'z vaqtida boshlash kerak. V. A. Slastenninning fikriga ko'ra, ijtimoiylashuvi (sotsializatsiya) jarayonida inson shaxsi tiklanadi, u ijtimoiy funksiyalarni bajarish qpbiliyatini egallaydi, ya'ni uni rivojlantirishni ,o'z mavqeini belgilab olishi va o'zi amalga oshirishni nazarda tutadi . Bu vazifalar izchilik bilan ,aniq maqsadga qarab hal qilinadi. Bu aniq maqsadga qarab uyushgan ijtimoiy jarayonini boshqarish -ta'lim deb nomlanadi. Alohida yordamga muhtoj bolalar bilan ishlash jarayonida korreksion ishlarning ahamiyati katta. Bu ishlar qanchlik sifatli amalga oshirilsa ,bolaning shunchalik bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishi oson kechadi. O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza etish vazirligi tasarrufidagi internat turdagi bolalar "Muruvvat"uylarida

murakkab ko'p nuqsonli bolalar bilan korreksion rivojlantiruvchi ishlarning olib borilishi muhim ahamiyatga ega. Bolalar "Muruvvat" uyida rivojlanishida murakkab ko'p nuqsonli bolalar bilan korreksion rivojlantiruvchi ishlar ushbu toifadagi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda yaratilgan tizim asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lishi ,"Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi va "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi yoshlarimizga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning yorqin namunasidir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohatlarning zamirida eng avvalo kelajak avlodning barkamol bo'lib ulg'ayishi ,hech kimdan kam bo'lmay dunyo arenalarini zabt etishga qodir farzandlar bo'lib yetishishi muhimdir.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, -T., 1997 y
2. "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, T., O'zbekiston, 2008
3. O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, T.,O'zbekiston 2008
4. Ayupova M. Yu Logopediya- T.,"O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati "2007.
5. Aytmetova. S. Sh"Oligofrenopedagogika . -T.,1994.